



2023: Special Issue "Problems and Prospects for the Development of Accounting, Economic Analysis and Audit Based on International Standards in the Conditions of Economy Digitalization"

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLIGA MAISHIY XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'I FAOLIYATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Samiyeva Gulnoza Toxirovna

“Innovatsion iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti

Annotatsiya

Ushbu tadqiqot ishi raqamli iqtisodiyotda maishiy xizmatlar tarmog'i samaradorligini oshirishga qaratilgan. Ushbu maqolada davlat xizmatlari tarmog'ini optimallashtirish, uni yanada samaraliroq va mijozlar ehtiyojlariga moslashtirishga yordam beradigan asosiy omillar va strategiyalar ko'rib chiqiladi. Maqolada maishiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar duch kelayotgan mavjud muammo va to'siqlar tahlili, ularni bartaraf etishning innovatsion yondashuvlari keltirilgan. Shuningdek, tadqiqotda raqamli iqtisodiyotning maishiy xizmat ko'rsatish tarmog'iga ta'siri tahlili hamda xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilaydigan va xarajatlarni kamaytiradigan yangi texnologiyalar va raqamli platformalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: maishiy xizmatlar, xizmat ko'rsatish tarmog'i, samaradorlik, raqamli iqtisodiyot, axborot texnologiyalari, raqamlashtirish, mijozlarga yo'naltirilganlik, innovatsiyalar, xizmat sifati, xarajatlar.

KIRISH. Dunyoda globallashtirish jarayoni chuqurlashuvi hamda antimonopol siyosatga qarshi kurash, raqobatning keskinlashuvi, ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish darajasini oshirishda sifat ko'rsatkichlarining ustuvorligi xizmat ko'rsatish, sohalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Xususan, maishiy xizmat ko'rsatish sohalar rivojlanishiga bo'lgan obyektiv zarurat aholi turmush darajasi sifatini yuksaltirishi bilan bir qatorda ish bilan bandlik darajasini ortishiga ijobiy ta'siri bilan ham izohlanadi.

“Dunyoning rivojlangan davlatlari xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 75 foizni hamda ish bilan bandlik salmog'i 70 foizdan ortig'ini tashkil etadi. Iqtisodiyotdagi tarmoq va sohalar xizmat ko'rsatish yo'nalishlari bo'yicha bandlikni tahlil etsak, Yevropa davlatlarida 75%, AQShda 80 %, Yaponiyada esa 82 %dan ortgan”¹. Aynan shuning uchun jahonda xizmatlar sohasini rivojlantirish, xizmatlar hajmi va sifatini oshirgan holda, xizmatlarning zamonaviy turlarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

¹ <http://www.worldbank.org/eca/russian/data/>

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI. Ilmiy-tadqiqot ishi doirasida xizmat ko'rsatish, xususan, maishiy xizmat sohasi rivojlanishining ilmiy, nazariy, uslubiy asoslari M.Y.Porter, B.S.Santo, K.X.Xaksever, R.S.Rassel, R.G.Merdik, A.P.Chelenkov, V.V.Kulibanova, S.N.Korobkova, V.I.Kravchenko, I.P.Pavlova va boshqalar tomonidan o'rganilgan bo'lsa, o'zbekistonlik olimlardan YO.A.Abdullayev, Q.J.Mirzayev, M.M.Muxammedov, B.A.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, J.R.Zaynalov, N.To'xliyev, I.Ivatov, K.B.Urazov, Sh.S.Sharifov, E.S.Fayziyev, B.SH.Safarov, M.T.Alimova, U.R.Matyakubov kabilarning ilmiy tadqiqot ishlarida aks ettirilgan.

TADDIQOT METODOLOGIYASI. Ilmiy maqolani yozishda tizimli tahlil, mantiqiylik, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Shuningdek, tahlil qilish uchun O'zbekiston respublikasining xizmat turlariga doir statistik ma'lumotlardan, O'zbekiston Respublikasi xizmat sohasiga doir huquqiy-me'yoriy hujjatlar ham o'rganilgan.

TAHLILLAR VA ASOSIY NATIJALAR. O'zbekiston Respublikasida tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, raqamlashtirish, bandlikni ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, aholining daromadi va turmush sifatini oshirishning muhim omil va yo'nalishlaridan biri tariqasida xizmat ko'rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirish ustuvor masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xizmatlar sohasi iste'molchilarga xizmat turlarining takror ishlab chiqarishini qamrab olib, ularning har biriga maxsus faoliyat turlari mos keladi.

1-jadval.

O'zbekistonda aholiga jami ko'rsatilgan xizmatlar va maishiy xizmat ko'rsatish hajmining 2016-2021 yillardagi o'zgarishi

Ko'rsatkichlar	2017	2018	2019	2020	2021	2021 yil 2017 yilga nisbatan o'zgarishi	
						+,-	%
O'zbekistonda jami ko'rsatilgan xizmatlar, mlrd. so'm	11113,6	14058,8	19292,0	26455,8	31785,8	20672,2	286,0
O'zbekistonda maishiy xizmatlar, mlrd. so'm	187,1	253,9	326,9	430,7	551,4	364,3	294,7
O'zbekiston bo'yicha jami xizmatlarda maishiy xizmatlarning ulushi, %	1,68	1,81	1,69	1,63	1,73	+0,05	X

Tahlillardan ko'rish mumkinki, maishiy xizmatlar hajmi yildan yilga oshib borgan va bunga asosan ko'rsatilgan maishiy xizmatlarning narxi ham katta ta'sir qilgan.

Ma'lumki, oxirgi yillarda maishiy xizmatlar narxi ko'rsatiladigan xizmat turlariga qarab 20-22 marta oshgan. Ayniqsa, so'nggi 4-5 yilda bu o'sish sezilarli bo'lgan.

Tovarlardan farqli ravishda xizmatlar moddiy obyekt shaklini ololmaydi. Xizmat ko'rsatish va ularni ishlab chiqarish bir-biridan ajralmas va bir-birini to'ldiruvchi komponentlardir. Xizmatlar

iste'molchilar buyurtmasi bo'yicha ishlab chiqaruvchilar tomonidan amalga oshiriladigan turli faoliyat natijalarini ifodalaydi va odatda birliklar holatini o'zgartirishga olib keladi.

Xizmat ko'rsatishda iste'molchilar kutadigan o'zgarishlar quyidagilarga bog'liq bo'ladi:

- xizmatni ishlab chiqaruvchi iste'molchiga tegishli tovarlar bilan muayyan operatsiyalarni, ya'ni ularni tashish, tozalash, ta'mirlash kabi ishlarni amalga oshirish;

- xizmatni amalga oshiruvchi insonlarga terapevtik yoki jarrohlik yordami ko'rsatadi, ularning tashqi ko'rinishini o'zgartiradi, ta'lim, informatsion va maslahat xizmatlarini ko'rsatadi, ko'ngilochar dasturlarni tashkil qiladi va h.k;

- ishlab chiqaruvchi sug'urta, moliyaviy vositachilik bo'yicha xizmatlar ko'rsatadi, himoyani ta'minlaydi, kafillik beradi va h.k.

Bu kabi o'zgarishlar vaqtinchalik yoki doimiy xarakterga ega bo'lishi mumkin. Chunonchi, tibbiy xizmatlar yoki ta'lim sohasida xizmatlar ko'rsatish natijasida iste'molchilar holatida uzoq muddatli o'zgarishlar ro'y berishi va bu o'zgarishlarning afzalligidan uzoq yillar mobaynida foydalanish mumkin. Bir guruh tarmoqlar, tovarlarning ko'pgina xususiyatiga ega bo'lgan mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullansa ham odatan xizmatlar sohasi kabi tasniflanadi. Bu guruhga informatsion dasturlarni yaratish, yangiliklar va maslahat xususiyatiga ega bo'lgan materiallarni tayyorlash, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish, kinofilmlar va musiqa dasturlarini yaratish va shu kabilar kiradi.

Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda respublikamizda xizmatlar sohasini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga quyidagi tashkiliy-iqtisodiy muammolar to'siq bo'lmoqda:

- xizmatlar sohasini modernizatsiyalash va diversifikatsiyalashning talab darajasida emasligi;

- xizmatlar sohasi va bozorini rivojlantirish hamda samaradorligini oshirish bo'yicha aniq innovatsion yo'nalishlarning belgilab olinmaganligi;

- xizmatlar sohasini rivojlantirishda turli tashqi omillar (tabiiy ofatlar, kasallik va pandemiya oqibatlarini) ta'sirlarining hududlarda yetarli darajada hisobga olinmaganligi;

- xizmatlar sohasini rivojlantirish jarayonlari va chora-tadbirlarida raqamli iqtisodiyot talablariga mos tashkiliy-iqtisodiy mexanizm to'liq ishlab chiqilmaganligi;

- xizmatlar sohasini rivojlantirishda jahon tajribasi, ayniqsa, industrial rivojlangan xorijiy davlatlarda erishilgan ilg'or yutuqlardan respublika va uning hududlarida yetarli darajada foydalanilmayotganligi;

- xizmatlar sohasini rivojlantirishda innovatsiyaning past darajada qo'llanilayotganligi, ayniqsa kelajak xizmatlari, yangilikka asoslangan xizmatlar bo'yicha tizimli ishlarning yo'lga qo'yilmaganligi va h.k.

2-jadval.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasi asosiy ko'rsatkichlarining o'sish sur'atlari²

Ko'rsatkichlar nomi	yillar					2021 y.da 2017 y.ga nisbatan, %da
	2017	2018	2019	2020	2021	
Mamlakat YAIMda xizmat ko'rsatish sohasini ulushi,%	39,4	38,1	35,9	35,5	36,3	92
Jami ko'rsatilgan	97,1	118,8	150,9	193,7	218,9	225,4

² O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari

xizmatlar hajmi, trln.so‘m							
Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, mln.so‘m	3,0	3,7	4,6	5,8	6,4	213	

2-jadval

O‘zbekistonda iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo‘yicha ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining o‘zgarishi, trln. so‘m³

Хизматлар turi	yillar					2021 yil 2017 yilga nisbatan, %da
	2017	2018	2019	2020	2021	
Xizmatlar, jami	97,1	118,8	150,9	193,7	218,9	225,4
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	6,3	8,2	10,3	10,9	12,9	204,7
Moliyaviy xizmatlar	9,9	15,0	21,3	34,0	45,8	462,6
Transport xizmatlari	30,6	36,2	44,2	54,5	53,8	175,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3,0	3,6	4,7	5,9	5,9	196,6
Savdo xizmatlari	27,4	32,0	39,7	48,7	56,5	206,2
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	3,4	4,0	5,0	5,9	6,1	179,4
Ta‘lim sohasidagi xizmatlar	3,3	4,4	5,4	7,2	9,1	275,7
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1,4	1,7	2,2	3,1	3,2	228,6
Ijara va prokat xizmatlari	2,3	2,6	3,3	3,7	4,2	182,6
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta‘mirlashga oid xizmatlar	2,2	2,3	2,6	3,2	3,4	154,5
Shaxsiy xizmatlar	2,9	3,1	3,7	4,6	5,0	172,4
Arxitektura, injenerlik izlanishlari, texnik tadqiqotlar va tahlil bo‘yicha xizmatlar	1,1	1,6	3,0	4,5	4,9	445,4
Boshqa xizmatlar	3,2	3,9	5,5	7,3	8,1	253

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xizmatlar sohasini modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni, uning tarkibini zamon talablariga mos holda o‘zgartirishni amalga oshirishni optimal tarzda olib borish

³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari

YAIMda qo‘shilgan qiymat hajmini ko‘paytirishning muhim omili bo‘lib qoladi.

Respublikamiz iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasi ulushi salmoqli ravishda o‘shib bormoqda. Xizmat ko‘rsatish sohasining bunday o‘shishiga bir qancha omillar ta‘sir qiladi, jumladan, bozorda insonlarning yangidan yangi xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojining paydo bo‘lishi, masalan, raqamli iqtisodiyot sharoitida bankka bormasdan kredit kartalari orqali to‘lovlarni amalga oshirish, internet-shopping, zamonaviy savdo-sotiq markazlari, ovqatlanish korxonalarini, mehmonxonalarining ochilishi, ta‘lim xizmatlarining kengaytirilishi, dam olish san‘ati, turizm va hokazolar bilan izohlash mumkin⁴.

Xizmatlar maxsus tovar sifatida uning bozorini maxsus shartlar asosida amal qilishini talab etadi. Ayniqsa, maishiy xizmatlar bozori o‘zining xususiyatlariga ko‘ra, shahar va qishloqlarda bir-biridan farqlanadi. Bu farqlanishlar maishiy xizmatlarni tashkil etilish xususiyatlari, xizmatlar infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi, aholi daromadlari darajasi va h.k.larga bog‘liq. Maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida axborot ta‘minotini yanada rivojlantirish aholini maishiy xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojini to‘laroq qondirish, ushbu sohani o‘shirish dinamikasini baholash, ko‘rsatiladigan xizmatlar sifati va samaradorligini yaxshilashga imkoniyat yaratadi. Buning uchun hududlar miqyosida maishiy xizmatlarga bo‘lgan talabni o‘rganish bo‘yicha maxsus xizmatlar – marketing markazlarini tashkil etish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Samiyeva, G. T. (2022). The Most Important Aspects of Studying the Living Standards of the Population. [Academic Journal of Digital Economics and Stability](#), *Volume 16*, April 2022, Pages 79-83
2. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna, and B. I. Xaydarov. "The Importance of Self-Employment and Self-Reliance in Improving the Well-Being of the Population Self-Employment." *Journal of Marketing and Emerging Economics* 2.5 (2022): 36-41.
3. Samiyeva, Gulnoza Tokhirovna. "Reform in the Field of Family Entrepreneurs in Reducing Poverty in Uzbekistan." *Academic Journal of Digital Economics and Stability* 7 (2021): 96-100.
4. Sattarov SH.H.O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. - Iqtisodiyot va ta‘lim / 2021 yil, 4-son, 386-390-betlar
5. Хуррамов Азамат Файзуллаевич, Аралов Худоёр Мусакулович, & Маматов Мамажан Ахматжанович (2022). МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТАРМОҚ ТАРКИБИНИ ТАКОМИЛЛАШУВИГА ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИНГ ТАЪСИРИ. Экономика и финансы (Узбекистан), (7 (155)), 2-10. doi: 10.34920/EIF/VOL_2022_ISSUE_7_1
6. Atajanovich Mamatov, A., Fayzullaevich Khurramov, A., Ahmadjonovich Mamatov, M., Davlatkulovich Anarkulov, A., & Khazratkulovich Khasanov, S. (2021, December). Integral Improvement of Economic Safety of the Regions. In *The 5th International Conference on Future Networks & Distributed Systems* (pp. 728-732).
7. Murodov, J. (2020). Мамлакатимизда хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий ислохатлар кўлами. *Архив научных исследований*, (29).
8. Утанов Б., Маматкулов Б., Ахмедова М., Муродов Дж. и Абдикулова Д. (2021). Взаимосвязь взаимодействия сельскохозяйственного производства с объемом дехканского производства в Узбекистане. *Илкогретим Онлайн*, 20 (3).

⁴ Sattarov SH.H.O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari. - Iqtisodiyot va ta‘lim / 2021 yil, 4-son, 386-390-betlar

9. TUYGUNOVICH, A. A., OGLI, S. O. A., & QIZI, K. Z. K. Problems of Improving Stock Market Trading Mechanisms in Uzbekistan. *JournalNX*, 6(07), 330-334.
10. Alikulov, A. T., Qudratova, M. P., & Xushvaqov, I. M. (2021). Analysis of the Activities of Securities of Commercial Banks at the RSE "Tashkent". *Middle European Scientific Bulletin*, 18, 327-332.
11. Alisherovich, T. S., & Iskandarovich, R. R. (2021). Prospects for Household Entrepreneurship Development. *Academic Journal of Digital Economics and Stability*, 79-84.
12. Iskandarovich, R. R. (2022). QISHLOQ XO 'JALIGIDA AGROKLASTERLARINI BARPO ETISHNING XORIY TAJRIBALARI. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 390-394.
13. Djalilov, R. H. (2021). The role of the cameral tax audit in the tax control of the republic of uzbekistan.
14. ДЖАЛИЛОВ, Р. РОЛЬ ИСТОЧНИКОВ ИНФОРМАЦИИ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ НАЛОГОВОГО КОНТРОЛЯ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ. *ECONOMICS*, (3), 42-46.
15. Alisherovich, T. S. (2022). ECONOMIC CONTENT OF HOUSEHOLDS. *Gospodarka i Innowacje.*, 150-155.
16. Alisherovich, T. S., & Isoqovna, A. G. (2022). Organizing Fundamentals of Digital Audit in the International Practice. *Miasto Przyszłości*, 24, 424-426.
17. Бердиев, А. Х. (2020). Использование инноваций в сельском хозяйстве является главным фактором эффективности. *Вестник науки и образования*, (3-2 (81)), 9-14.
18. Бердиев, А. Х., & Расулов, Х. К. (2020). Туризм-перспективный сектор экономики Узбекистана. *Economics*, (2 (45)), 14-18.
19. A.J. Musagaliev, & B.T. Shodiev. (2022). Methodological Issues of Location and Effective Use of Wells in Pastures in Uzbekistan . *Partners Universal International Research Journal*, 1(1), 1–5. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6387977>
20. Musagaliev, A. J., & Shodiev, B. T. (2023). Issues of Efficient Usage of Pastures in the Development of the Cattle Farming Network. *UTTAR PRADESH JOURNAL OF ZOOLOGY*, 44(1), 81-87. <https://doi.org/10.56557/upjz/2023/v44i13394>
21. Farmanov, J. Z., Rimboyeva, N., & Qaxramonov, F. (2022). MAMLAKATIMIZDA AGRAR SIYOSATNI AMALGA OSHIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(3), 1191-1197.
22. Farmanov, J., & Ogabek, S. (2021). The encourages of increasing agriculture economy by the government. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 2477-2479.
23. NORMAMATOVICH, K. O., EGAMBERDIYEVNA, A. K., & HAKIMOVICH, B. K. Creating a Favorable Environment for Attracting Foreign Investment and Strengthening Its Legal Framework. *JournalNX*, 6(05), 53-56.
24. Khakimovich, B. K. . (2022). Development of Private Capital Financial Statement Audit Methodology in Accordance with International Standards. *European Multidisciplinary Journal of Modern Science*, 4, 299–303.
25. БУТУНОВ, Ш. Б. (2021). THE IMPACT OF MACROECONOMIC AND BANKING FACTORS ON THE LEVEL OF NON-PERFORMING LOANS: RESULTS FOR THE CIS COUNTRIES. *Economics*, (3 (50)), 33-42.

26. БУТУНОВ, Ш. ВЛИЯНИЕ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ И БАНКОВСКИХ ФАКТОРОВ НА УРОВЕНЬ НЕДЕЙСТВУЮЩИХ КРЕДИТОВ: РЕЗУЛЬТАТЫ ПО СТРАНАМ СНГ. *ECONOMICS*, (3), 33-42.
27. Muzaffarova, K., & Abdulkarimov, K. (2022). FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN THE REGIONS. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(5), 278-28
28. Музаффарова, К. З. (2022, December). ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТ ИҚТИСОДИЁТИГА ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАР ЖАЛБ ЭТИШ ОМИЛЛАРИ. IN *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 18, pp. 131-134).
29. Эгамбердиевна, А. Ҳ. (2021). ХОРИЖИЙ ИНВЕСТИЦИЯЛАРНИ ЖАЛБ ЭТИШДА ҲУҚУҚИЙ ВА ИНСТИТУЦИОНАЛ АСОСЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(5).
30. Azimova, N. (2019). RISING THE INCOME OF POPULATION–THE GUARANTY OF LIVING STANDARD. *International Finance and Accounting*, 2019(3), 7.
31. Равшанов А. Д. Абдисалом Дусиёрович, Хасанов Шамсиддин Хафизович, & Алимханова Нигора Алимхановна (2018). Қишлоқ хўжалигини инвестицион-инновацион ривожлантириш имкониятлари ва истиқболлари. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (11), 9-14.
32. Murodova, N. U., Temirova, F. S., Alimkhanova, N. A., Dostova, M. K., & Azimova, K. E. IMPROVING THE CALCULATION OF INVENTORIES OF GOODS IN ACCOUNTING.
33. Жумаева, Г. Ж., Хасанова, Ю. М., & Рузиев, З. И. СВОБОДНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЗОНЫ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.
34. Жумаева, Г. Ж. (2020). ИСТОРИЯ РАЗВИТИЯ ХОЗЯЙСТВЕННОГО УЧЕТА И АНАЛИЗА. *Экономика и социум*, (3 (70)), 283-286.
35. Эгамбердиева, С. Р. (2021). ИНВЕСТИЦИОН ФАОЛИЯТНИ РЕЖАЛАШТИРИШ ВА ЛОЙИҲАЛАРНИ АСОСЛАШДА ИННОВАЦИОН ҲИСОБ ТИЗИМИНИНГ АҲАМИЯТИ. *Журнал Инновации в Экономике*, 4(5).
36. Egamberdiyeva, S. R., Qodirov, F. I., & Shopiyev, R. R. (2022). BUXGALTERIYA HISOBINING MILLIY STANDARTLARINI MNXS GA UYG ‘UNLASHTIRISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 353-358.
37. Аминов Ф.Б. (2023). ЖИЗНЕННЫЙ УРОВЕНЬ НАСЕЛЕНИЯ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА. *Экономика и социум*, (2 (105)), 434-443.
38. Аминов, Ф. Б. (2022). РОЛЬ ФИНАНСОВЫХ РЕСУРСОВ В ИННОВАЦИОННОМ РАЗВИТИИ ЭКОНОМИКИ. *Economics*, (1 (51)), 26-29.
39. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari